ERKIN VOHIDOV DOSTONLARIDA MILLIY XRONOTOP IFODASI

Yuldasheva Halima Muxitdinovna
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi,PhD
E-mail: Halimaxonim@gmail.com
tel: +998916989265

Annotatsiya
Maqolada adabiyotshunoslik fanining dolzarb muammolaridan biri xronotop shakllarining badiiy xususiyatlari tahlil qilingan. Jahon adabiyotshunosligida ushbu muammo tadqiqiga bag‘ishlangan qator izlanishlar olib borilmoqda. Shu ma’noda mazkur maqolada she’riyatda, xususan, atoqli shoir Erkin Vohidov ijodida xronotop masalasi davr va makon nuqtayi nazardan tahlilga tortilgan.
Kalit so‘zlar: *xronotop, badiiy zamon, badiiy makon, real, ijtimoiy, psixologik, milliy.*

Asrlar davomida shakllangan dostonchilik Erkin Vohidov ijodida ham mumtoz, ham zamonaviy an’analar mushtarak bo‘lgan adabiy hodisaga aylandi. O‘zbek dostonchiligi ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan bir qator tadqiqotlarda XX asr o‘zbek dostonchiligining ilmiy-nazariy, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlariga oid jiddiy qarashlar mavjud.

Xususan, professor Sh.Hasanov maqolalarida XX asr II yarmi davri adabiyotida doston janrining taraqqiyotiga xos xususiyatlar, jumladan, “jamiyat va shaxs ichki dunyosidagi ziddiyatlar, manzaralar, umuman,davrning eng muhim masalalari epik lirika, ya’ni dostoniy lirikada individual dunyoqarashga ega bo‘lgan shaxs nuqtayi nazaridan yoritilishi” keng ko‘lamda tadqiq qilingan bo‘lib, bu xususiyatlar G‘arbiy Yevropa poemachiligi hamda o‘zbek dostonchiligi namunalari asosida qiyosiy tahlil etilgan. (Mirtemirning “Surat”, M.Shayxzoda-ning “Toshkentnoma”, S.Zunnunovaning “Ruh bilan suhbat” kabi asarlari misolida). [Hasanov .1924: 2].

Xalqimiz taraqqiyotning Uchinchi Renessans bosqichiga kirgan bir davrda xalq og‘zaki ijodi va mumtoz yozma dostonchilik ohanglari zamonaviy dostonlar tabiatiga chuqur singib bormoqda. Adabiyotimiz Sharq va G‘arb she’riyatiga xos ilg‘or an’analarni o‘zida mujassam etmoqda, shaxs komilligida tasavvufiy qarashlar yana asosiy omilga aylanmoqda. Ayni zamonda shaxs va borliq, tarix
va davr, vaqt va makon masalalari yangidan yangi adabiy-badiiy talqinlarga sabab bo‘layotganini sezish mumkin.

O‘tgan asrning II yamida ijtimoiy hayotda kechgan o‘zgarishlar, davrning tezkor sur’ati zamonaviy dostonlar tabiatida ham o‘z izlarini qoldirmoqdaki, bu kelgusida yangidan-yangi tadqiqotlar yuzaga kelishini anglatadi. Professor Sh.Hasanov davr adabiyotiga oid qarashlarini davom ettirib, shunday fikr bildiradi: “XX asrning ikkinchi yarmida yaratilgan o‘zbek dostonlari rivojida voqeaband she’rlarning ta’siri sezilarlidir. Chunki biz tadqiqot obyektiga asos qilib olgan aksariyat dostonlarning mualliflari “yirik hajmli she’riy asarlar” yaratgunga qadar talaygina voqeaband she’rlar ijod etishgan edi.

E.Vohidovning “Oqsoqol”, “Bizlar ishlayapmiz”, “Arslon o‘rgatuvchiga” [Hasanov .1924: 2] kabi voqeaband she’rlari shular jumlasidan”.

Erkin Vohidov ijodining ilk pallalarida yozilgan “Orzu chashmasi” (“Qora dengiz ertagi”) dostoni ham shu tarzda – voqeaband she’rlar zaminida dunyoga kelgan. Dostonning sujeti, kompozitsiyasi, qahramonlar xarakteridagi individuallik haqida talay fikrlar aytilgan. Ularda “Orzu chashmasi” dostonining sujeti , kompozitsion tuzilishiga xos xususiyatlar borasidagi mulohazalarini davom ettirib, “Orzu chashmasi”dagi Orzu va Og‘ado‘stning ertakdagi prototiplaridan farqi shundaki, bunda qahramonning individual xarakteriga oid tomonlar chuqurlashtirib, folklorga xos umumiy harakatlar o‘rni real harakatlar bilan almashtirilgan”, - deb yozadi professor Sh.Hasanov ”Hozirgi o‘zbek dostoni poetikasi” monografiyasida. [Hasanov .1924: 2]. Ushbu fikrlarni e’tirof etgan holda dostondagi milliy xronotoplarga diqqat qilsak.

Milliy xronotopning mohiyatini milliy va diniy qadriyatlar, an’analar tashkil etar ekan, ular bir tarixiy ildizga borib taqaladi, bu ildizlarda ajdodlarimizning buyukligini tasdiqlovchi dalillar bor, avlodlarning kelajak orzu-umidlarini ruhlantiruvchi da’vatlar mavjud.

Erkin Vohidovning “Orzu chashmasi” dostonida milliy xronotop milliy urf-odatlar, milliy cholg‘u asboblari orqali quyidagicha ifoda etilgan: dostonda Sulton nomli bir zolim podshoh yurtida yuz bergan voqealar ertak-rivoyat shaklida bayon qilinadi. Asarning bosh qahramoni Orzu – “go‘zal edi, yosh edi, sevgi uchun yaralgan sanam…” edi: Og‘ado‘st cho‘pon va Orzu muhabbatiga bag‘ishlangan asar tuguni turkiy xalqlarga xos milliy an’ana – Navro‘z saylida oshiq cho‘pon o‘lanidan qattiq ta’sirlangan qizning qalb iztiroblaridan boshlanadi. Dostonda milliy xronotop oshiq yigitning ko‘klarga uchgan dil izhori – oh-u nolasining tanbur, chirmanda jo‘rligida kuylanishida namoyon bo‘ladi.

“Ayni bahor kulgan chog‘ edi,
Sayil joyi ko‘rkam bog‘ edi.
El yig‘ilgan **Navro‘z bazmiga**.
Avjda edi **tanbur, chirmanda**.
Yoshligini eslardi chollar
Qiz, yigitlar **lapar** aytganda” [Vohidov E.1988:1].

Orzu- beg‘ubor, hayosi o‘zidan go‘zal Sharq sanami - pinhona sevgisini aytishga jur’atsiz, ayol zoti uchun sevgi borasida og‘iz juftlamoq – or-nomus masalasi hisoblangan jins vakilasi. Undagi “ishqdan so‘z ochmoq - or” bo‘lgan xususiyat aslida milliy qadriyat darajasiga ko‘tarilgan, davr taloto‘mlarida “zamonaviylik” niqobi ostida tobora noyoblashib borayotgan fazilatdir.

“Erkak bo‘lsam,
Sevib qolsam yor
Yuragimni qilardim bayon.
Ayt
Bo‘laymi sevgimga iqror,
Yo ishqimni tutaymi pinhon? “[Vohidov E.1988:1].

Nihoyat, qiz muhabbatini oshkor qilishga jur’at etdi – ko‘k chashma qizginaga yordamga oshiqdi:

“Ishq dard emas,
Ishq saodat-ku.
Tutma aslo sevgingni pinhon!
…Maktubingni men bilan oqiz,
Oqiz, joylab qalbing qatiga…”

Xalq og‘zaki ijodida ham, mumtoz adabiyotimizda ham voqealar rivoji uchun suv vosita bo‘lgan sujet tizimlari talaygina. Jumladan, “Kuntug‘mish” dostoni, “Tohir va Zuhra” ertagi, “Xamsa” tarkibidagi dostonlarni misol tariqasida keltirish mumkin. An’anadan ijodiy foydalanish Erkin Vohidov asarlarining qimmatini oshiradigan omil ekanini hisobga olganda, ushbu dostonda ham ayni uslubdan foydalanish dostondagi milliy xronotopni namoyon qilishga xizmat qilganini aytish mumkin.

“Senga maktub yozmas edim ham,
Qizga ishqdan so‘z ochmoq ordir”. [Vohidov E.1988:1].

O‘zbek millati tafakkuriga xos tasvir va obrazlarning ushbu holatini milliy xronotopning yorqin ifodasi deyish mumkin.

Ijodkorning 1966-yilda yaratilgan yana bir doston janriga mansub asari – “Palatkada yozilgan doston” 1966-yil 26-aprel sanasida yuz bergan mudhish zilzila – vayronkor tabiiy ofatdan so‘ng poytaxt ko‘chalariga o‘rnatilgan palatkalarda yashashga majbur odamlarning kechinmalariga tirik guvoh bo‘lgan insonning qalb iztiroblari aks-sadosi. Dostonda sho‘rolar istibdodi davri mafkurasi – mamlakat ahvoliga oid buyurtma qilinadigan asarlar yaratish chaqiriqlariga siyosiy hozirjavoblik ruhi sezilib tursa-da, biroq chin insonga xos sabot, matonat, hamdardlik, samimiylik, beg‘araz va beminnat ko‘mak tuyg‘ulari ta’sirchan lavhalarda real ifoda etilgan.

Bu na chaqirig‘-u
Na tashviq, shior,
Plakat na darkor?
Nutqlar na darkor?

Dostonning milliy xronotop aks etgan lavhalari xalqning asrlarda toblangan milliy urf-odatlari, an’analarida davom etadi:

Devorlar darz ketdi
Yuraklar butun.
Binolar yiqildi
Odamlar yashar.
Do‘stlarin chaqirar
Hasharga shahar.

Hashar – milliy qadriyat darajasidagi udumlardan. Insoniyat boshiga tushgan og‘ir damlarda hashar yo‘li bilan nafaqat kichik bir oilalarning, balki butun boshli mamlakatning mushkullari oson ko‘chgan. 45 kunda tun-u kun hashar yo‘li bilan uddalangan Katta Farg‘ona kanali qurilishi Ikkinchi Jahon Urushi davrida xalqimiz matonatiga sinov bo‘lganligi, bunday kunlarda odamzotning “saragi - sarakka-yu, puchak - puchakka” ajralishi tarixdan ayon.

Yer qalqdi – yer bilan

Yuraklar qalqdi.
Yuzaga tuyg‘ular
Tilaklar qalqdi.
Odamlar ajraldi
Un-u kepakka -
Sarak sarakka-yu
Puchak – puchakka. [Vohidov E.1988:1].

Bu kabi xalq donishmandligining ifodasi bo‘lmish maqollardan, iboralardan o‘rinli foydalanish dostondagi milliy xronotoplarning folklor xronotopi bilan mushtarak ifodalanishiga yorqin misol bo‘la oladi. “Joni halqumiga kelmoq” iborasi ham ijodkor zargarona mahoratining go‘zal namunasi deyish mumkin. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ushbu ibora quyidagicha izohlangan: “Joni halqumiga *(yoki* bo‘g‘ziga, hiqildog‘iga) kelmoq 1) o‘lar holatga kelmoq, o‘lguday qiynalib ketmoq. ◆ Dushmanlar joni halqumiga kelganda mana bunday quturadilar. A. Muxtor, Opa-singillar; 2) *ko‘chma ayn.* joni chiqmoq 2. ◆ Boya nimalarni so‘zladingiz, sir ochi-ladimi, deb jonim bo‘g‘zimga keldi. A. Qodiriy, O‘tgan kunlar; 3)ko‘chma. bezor bo‘lmoq, toqati toq bo‘lmoq. ◆ Hamma yerda ham odam-larning joni bo‘g‘ziga kelib qoldi, qizim! *M. Ismoiliy, „Farg‘ona tong otguncha“* . [O‘zbek tilining izohli lug‘ati.2022:4]

Iboraning “qo‘rqmoq” ma’nosini beruvchi varianti ayni matnga mos kelganini quyidagi misralarda ko‘rish mumkin:

“Bir do‘stim…
Derdi: fido bo‘lsin
Jonim xalqimga…
Bu kun kelib qoldi
Joni halqumga.
Qalbim payvand derdi
O‘sgan yerimga.
Tonggi reys bilan
Uchdi Qrimga… [Vohidov E.1988:1].

O‘zbek xalqining bag‘rikengligi - isbot talab qilmas aksioma. Millati, dini, kelib chiqishidan qat’i nazar – musibatzadalarning 16 nafariga og‘zidagi nonini tutgan Shomahmudovlar — insonparvarlikning yuksak namunasini ko‘rsatgan oila. Ikkinchi jahon urushi davrida toshkentlik temirchi Shoahmad Shomahmudov (1890 — 1970) va uning xotini Bahri Akramova (1903 — 1987) turli millatlarning qarovsiz va yetim qolgan bolalarini asrab olib, ta’lim-tarbiya berishdi.Ular boshpanasiz qolgan, turli millat vakillari bo‘lgan 13 bolani va urushdan so‘ng yana 3 nafar bolani o‘z tarbiyalariga olishdi. Shomahmudovlar chinakam insonparvarlikni ulug‘lovchi oila sifatida katta jasorat, qahramonlik ko‘rsatishdi. Yozuvchi Rahmat Fayziyning «Hazrati inson» romani, «O‘zbekfilm» kinostudiyasining «Sen yetim emassan» badiiy filmi yaratilishiga ularning hayoti asos bo‘lgan. Bu oila sharafiga 1982 yilning 26 mayida Toshkentda Xalqlar do‘stligi monumenti ochildi. Ha, o‘zbekning bag‘ri hamisha keng, u mehribon, jonkuyar. Dostonda shunday jo‘mard insonlarning - saxovat egalarining himmatini ifoda etgan misralar bor:

Deydilar, kulfatda –
Yurak bo‘lsa keng –
Tor uy ham do‘st uchun
Keng olamga teng.
Bizlar besh jon edik,
O‘n bir jon bo‘ldik…[Vohidov E.1988:1].

Ushbu satrlardan Shomahmudovlarga o‘xshash oliyjanob insonlar O‘zbekistonning har qishlog‘ida, har shahrida bo‘lganini anglash mumkin.

Dostonda e’tiqod masalasiga oid satrlar sinov onlarida insonga zarur bo‘lgan sabot, iymon butunligi ma’nolarida qo‘llangan.

Uy omonat bo‘lsa,
O‘y bo‘lsin butun.
Sabot g‘isht, ganch kabi
Zarurdir bu kun. [Vohidov E.1988:1].

Doston tarkibidagi “Kelinchak” deb nomlangan hikoyada zilzila ofati nafaqat insonlar jismini, balki ularning ruhini ham jarohatlagani hayotiy ishonarli lavhalarda badiiy ifoda etiladi. Oddiygina o‘zbek xonadonida yuz bergan mudhish voqea - “hali parvoz etmay sindi bir qanot, bevaqt ochilmasdan so‘ldi bir chechak”. Shoir iztirobli qalb kechinmalarida kelinchakni olib ketgan oqish mashina, ruhiy majruh onaning – uzoq yig‘lab…birdan qah-qah urgan kelinchakning, onaga intilib, undan goh qochayotgan go‘dakning, achchiq haqiqatga bardosh berolmay unsiz yig‘layotgan otaning badiiy timsoli gavdalanarkan, kelinchakning pok qadami tekkan ko‘cha changlari ham uni olib ketgan mashina ortidan xayrlashish uchun yerdan ko‘tarilganday edi go‘yo…Shoirning shifokorga qarata:

Doktor,
Mana mening yuragim, oling
Va lekin hayotga qaytaring uni, -

deya qilgan o‘tinchlarida kichik bir oilaning fojiasi butun bir shaharning yetim bo‘lib qolishiga mengzaladi.

Dasturxonda qoldi yarim kosa osh,
Qoldi silkingancha quruq belanchak.
Qurbon bo‘lganlarning soniga kirmas
Yurakdan ayrilgan bitta kelinchak, - [Vohidov E.1988:1].

misralaridagi “yarim kosa osh”, “quruq belanchak” realiyalari milliy xronotopning betakror ifodasini yaratgan shoir mahoratiga dalildir.

O‘zbek qizi Lyubov Timchenko hikoyasida chorak asr avval Toshkentning issiq bag‘rida isingan Ikkinchi Jahon Urushi jabrdiydalaridan biri - ukrain qizi Lyuba o‘zini o‘zbek millatiga mansub deb bilib, asl ismi Bahrixon ekanini e’tirof etadi. Qizni o‘z bag‘riga olgan mehribon insonlar Abdurazzoq ota, Sharifaniso ona butun o‘zbek xalqining bolajonlik xususiyatini o‘zida jamlagan.

Ulug‘ rus shoiri Sergey Yesenin ijodida oq qayinlar qay darajada mehr-muhabbat bilan badiiy tasvirlangan bo‘lsa, o‘zbekning buyuk shoiri Erkin Vohidov ham olma-yu gilos, anorlarni shu qadar mehr-muhabbat bilan Vatanning suratiga singdirib yuboradi.

E.Vohidov. Palatkada yozilgan doston	S.Yesenin. Singlimga xat. E.Vohidov tarjimasi.
Ko‘chalar chetida **Olma-yu gilos,** **Anorlar** qizarib Gullaydi qiyg‘os. Necha yillar osha O‘chmay zarhali Turadi Farhod-u Majnun haykali… [Vohidov E.1988:1].	**Oh, u oq qayinlar,** **Oppoq qayinlar…** Qizlardek sarvinoz, suluv, xushqomat. Sevmasligi mumkin ularni faqat Quvnoq navniholda ko‘rmagan samar. [Yesenin S. 5.]

Doston nihoyasida Erkin Vohidov kelajakning yorqin kunlariga buyuk ishonch bilan qarab, o‘zini ham, o‘quvchini ham lirik pafos cho‘qqisiga olib chiqadi:

Biz esa … o‘shanda
She’rxonlik qilamiz
Bog‘u gulshanda…
“G‘azal” xiyobonin
Etamiz sayr. [Vohidov E.1988:1].

XULOSA

Xronotop shakllari, ayniqsa, milliy xronotop dostonlar badiiy qurilishida timsollar xarakterini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi. Asar xronotopning bir shaklida yaratilishidan ko‘ra bir necha xil xronotop shakllarining mushtarak holda kelishi badiiy matn tabiatiga mos keladi. Erkin Vohidov dostonlarida xronotop shakllari sintezlashgan holda nisbatan ko‘proq kuzatiladi. Bu holat muallif badiiy-estetik g‘oyasini ochishda muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Воҳидов Э. Танланган асарлар. – Toshkent: Sharq. 2018.
2. Hasanov Sh. Hozirgi o‘zbek dostoni poetikasi. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti. 2024.
3. To‘rayeva B. Xronotop shakllari olam tasvirini qayta yaratish vositasi sifatida. Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2022, No 1 (42),146-168 https://journal.fledu.uz ISSN: 2181-8215 (online)
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU. 2022.
5. Yesenin S. She’rlar. Xurshid Davron kutubxonasi. https://kh-davron.uz